

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjaeva
29-avgust 2025-yil

O‘ZBEKISTON TARIXI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar
Ta’lim sohasi:	110000 – Pedagogika
Ta’lim yo‘nalishi:	60220300 – Tarix

QO‘QON – 2025

Fan/modul kodi O'T112345629	O'quv yili 2025-2026	Semestr 1-2	ECTS - Kreditlar	
			11	
			1	2
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		5	6
			Haftadagi dars soatlari	
			4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O'zbekiston tarixi	120	210	330
2.	I. Fanning mazmuni Fanning maqsadi - Respublikamizdagi akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda, shuningdek umumiy o'rta ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatuvchi bo'lajak tarixchi mutaxassislariga Vatanimiz, xalqimiz tarixiga oid bo'lgan zamon talabi darajasidagi chuqur bilimlarni berishga qaratilgan. Fanning vazifasi– talabalarga Vatanimiz tarixining eng qadimgi davridan to xonliklar davrigacha bo'lgan tarixiy jarayonlarni rivojlanish bosqichlarini davriy ketma-ketlikda o'rgatish, shu bilan birga tarixiy voqealarni o'rganish, ularni ahamiyatini tahlil qilishda birlamchi, asl manbalar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishan iborat. Fanning asosiy manbalari – Har bir fan, jumladan O'zbekiston tarixi fani ham o'z manbalariga ega bo'lib, bunday manbalar sirasiga O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlar, fanga oid maxsus adabiyotlar, davriy nashrlardagi ilmiy-uslubiy asarlarlar oiddir. Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: O'zbekiston tarixi fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Oxford universiteti (Buyuk Britaniya)ning San'at tarixi fanining o'quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 bo'yicha 2-o'rinni egallagan bo'lib, tarix, etnologiya sohasi bo'yicha yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi – Oxford universitetining History of the art kursida dunyo xalqlari san'ati tarixi nazariyasi bilan bir qatorda, zamonaviy xalqlar ijtimoiy-madaniy hayoti taraqqiyoti muammolari ham keng yoritiladi. Xalqaro standartlarga muvofiqlik – dastur madaniy xilma-xillikni tadqiq etuvchi xalqaro ilmiy muassasalar, ayniqsa, Britaniya universitetlarida keng			

tadqiq qiluvchi xalqlar madaniyati, san'ati va ijtimoiy hayoti tarixini o'rganish va ta'limi usullari prinsiplari asosida boyitilgan.

Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish – talabalar dunyo xalqlari madaniy o'ziga xosliklarini mustaqil tahlil qilish, dalillarga tayangan holda nazariy-amaliy xulosa chiqarishni o'rganadilar.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-mavzu: O'zbekiston tarixi fani predmeti, maqsad va vazifalari, uni o'rganish manbalari. O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalalari

O'zbekiston tarixining fan sifatida yoritish va o'quvchi diqqatini uzoq o'tmishga qaratish bilan biga talabalarning dunyoqarashlarini, ilmiy nazariy tafakkurlarini takomillashtirish, o'tmish va hozirgi zamondagi voqea va hodisalarga ilmiy xolislik va tarixiy ob'ektivlik tamoyillariga amal qilgan holda tarixiy voqelikka munosabat bildiradigan hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida yondashadigan erkin fikrli komil insonni tarbiyalash, talabalarda xalqimizning madaniy, ma'naviy merosiga, ilg'or an'analari, milliy qadriyatlari, ahloqiy fazilatlariga hurmat, vatanparvarlik tuyg'ularini, ajdodlarimizning jahon madaniyatiga qo'shgan hissalaridan faxrlanish va ularning munosib davomchilari bo'lishni tushuntirish. O'zbekiston tarixini o'rganishdagi yordamchi manbalar.

Tarixni o'rganishda davrlashtirishning ahamiyati. Davrlashtirish masalalarining o'rganilish tarixi. Davrlashtirishning hududiy xususiyatlari. Eng qadimgi davr, qadimgi davr, o'rta asrlar, yangi davr va eng yangi davring xronologik davrlari. Tarixiy, geologik, arxeologik davrlashtirishning o'ziga xosligi.

2- mavzu: O'zbekistonning ibtidoiy to'da davri tarixi

Ibtidoiy jamoa davri- insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichi. O'zbekiston hududining tabiiy - geografik sharoiti va iqlimi. O'zbekistonning ibtidoiy to'da davri. O'zbekiston hududining ibtidoiy odamlar tomonidan o'zlashtirilishi. Seleng'ur - eng qadimgi inson manzilgohi, Fergantrop. O'zbekiston - ilk insoniyat tsivilizatsiyasi beshigi. Teshiktosh - o'rta paleolitning noyob yodgorligi. Olovning kashf qilinishi. Iqlimi, hayvonot va o'simliklar dunyosi.

3-mavzu: O'zbekiston hududida urug'chilik jamoasining shakllanishi va rivojlanishi

O'zbekiston hududida urug'chilik jamoasining shakllanishi. Qadimgi odamlarning mashg'ulotlari. Ona urug'i jamoasining shakllanishi va taraqqiyoti. Urug'chilik jamoalari izlari: Samarqand makoni, Ko'lbo'loq, Uchtut ustaxonalari. Dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi. Joytun, Xisor, Kaltaminor madaniyati. Ibtidoiy odamlarining diniy qarashlari. Metallning kashf qilinishi va uning insoniyat tarixidagi ahamiyati. Sarazm va Zamonbobo madaniyati. Birinchi yirik mehnat taqsimotining boshlanishi. O'zbekiston hududida shakllangan ilk shahar - Jarqo'ton. Kulolchilik, to'qimachilik, me'morchilik. Ona urug'ining emirilishi va ota urug'ining vujudga kelishi. Temirning kashf qilinishi, uning O'rta Osiyo madaniyatining rivojlanishidagi ahamiyati. Ikkinchi mehnat taqsimoti. Ko'chmanchi chorvador

qabilalarning dehqonchilik vohalariga bostirib kirishi. Mil. avv. 1 ming yillikda O'zbekiston hududidagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar. Qabilalar ittifoqi.

4-mavzu: O'rta Osiyoning qadimgi aholisi

Eramizdan avvalgi 1 ming yillikda O'rta Osiyoning qadimgi aholisi. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda dehqonchilik va chorvachilik. Ularning yashash tarzi. Mashg'ulotlari.

5-mavzu. Avesto -Vatanimiz tarixini o'rganishda muhim manba

Zardushtiylik dinining paydo bo'lishi. "Avesto" zardushtiylarning muqaddas kitobi. "Avesto" O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda muhim manba. "Avesto"da ijtimoiy munosabatlarning ifoda etilishi. Dafn marosimlari.

6-mavzu: O'rta Osiyo hududida dastlabki davlat uyushmalarining vujudga kelishi. Qadimgi Xorazm, Qadimgi Baqtriya va So'g'diyona

Baqtriya, So'g'diyona, Parfiya, Margiyona. Dastlabki davlatlar: "Katta Xorazm", "Qadimgi Baqtriya" davlatlarining tashkil topishi. Bu davlatlarda yashagan aholining etnik tarkibi: massagetlar, saklar ularning joylashuvi. Xorazmliklar, baqtriyaliklar, so'g'dliklarning turmush tarzi, mashg'ulotlari: dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, kulolsozlik, to'qimachilik, metallsozlik, zargarlik. Ularning diniy e'tiqodlari. Ilk shaharlar: Qiziltepa, Daratepa, Uzunqir, Afrosiyob, Ko'ktepa, Erqo'rg'on, Ko'zaliqir. SHaharlardagi binolar. Birinchi magistrall sug'orish inshootlari va qo'rg'onlar. Miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalarida O'rta Osiyo xalqlari madaniyati.

7-mavzu: Ahmoniylarning O'rta Osiyoga bostirib kirishi va hukmronligi.

Ahmoniylar davlatining tashkil topishidagi tarixiy shart sharoitlar. Eron ahmoniylari hukmdorining Vatanimiz hududiga bosqinchilik yurishlari. To'maris va uning o'g'li Sparangiz boshchiligidagi kurash. Ularga qarshi kurash. Marg'iyonada Frada qo'zg'oloni. O'rta Osiyoda Ahmoniylar hukmronligi o'rnatilishi. Boshqaruv va soliq tizimi. Xorazmning Ahmoniylar mustaqil davlatga aylanishi.

8-mavzu: Aleksandr Makendonskiyning O'rta Osiyoga istilyochilik yurishlari.

Mil. av. 329 yilda Makedoniyalik Aleksandrning O'rta Osiyoga yurishlari. O'rta Osiyo xalqlarining yunon — makedoniyalik bosqinchilariga qarshi qahramonona kurashlari. Spitamen qo'zg'oloni. Aleksandrning Hindistonga yurishi. Aleksandr vafotidan so'ng saltanatining parchalanib ketishi.

9-mavzu: O'zbekistonning antik davr davlatchiligi. Salavkiylar va Yunon-Baqtriya davlatlari

Mavzuning tarixshunosligi. Salavkiylar davlatining vujudga kelishi. Hududi va aholisining etnik tarkibi. O'rta Osiyo salavkiylar davlati tarkibida. Salavkiylar davlatida boshqarish tizimi. SHarqiy viloyatlarning salavkiylar davlati iqtisodiyotida tutgan o'rni. Salavka, Antiox I larning podsholik davri. Salavkiylar va ko'chmanchi aholi. Salavkaning Hindistonga yurishlari, mag'lubiyati va oqibatlari, Antiox I ning pul siyosati. SHarqiy viloyatning mustaqillikka intilishi.

Yunon - Baqtriya davlatining tashkil topishi. Uning hududlari, aholisining etnik tarkibi, tabiati va iqlimi. Baqtriya yozma manbalarda "1000 shaharli o'lka". SHahar me'morchiligi. Dehqonchilik, hunarmandchilik taraqqiyoti. Kulolsozlik, zargarlik. Ellin va mahalliy madaniy an'analarning o'zaro ta'siri. Davlatning ichki va tashqi siyosati. Tovar – po'l munosabatlari. Yunon – Baqtriya davlatining inqirozga yuz tutishi. Yunon - Baqtriya madaniyati: yozuv, adabiyot, san'at, diniy e'tiqodlar.

10-mavzu: Qang' va Davan davlatlari

Qang' davlatining tashkil topishi, uning hududlari, aholisi etnik tarkibi. Qang' davlatining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti. Qang' davlati taraqqiyotida "Buyuk ipak yo'li"ning tutgan o'rni. Kanxa federasiyasi. Xitoy elchisi va sayyohi CHjan Syanning Qang' davlati haqida bergan ma'lumotlari. Qadimgi Farg'ona- Dovon podsholigining tashkil topishi, uning chegaraviy hududlari. Aholisi va etnik tarkibi. Farg'ona aholisining turmush tarzi, kasb - xo'jaligi, tili va madaniyati. Dovon podsholigi haqida Xitoy manbalari. Farg'ona va Xitoy o'rtasidagi urushlar. Farg'onaning mashhur otlari. Dovon - 70 shaharli o'lka. Marhamat, Eski Axsi, Koson. SHahar me'morchiligi. Savdo, dehqonchilik, bog'dorchilik va uzumchilik taraqqiyoti. Diniy qarashlar.

11-mavzu: Kushon davlati.

Yue - echji qabilalarining Baqtriyaga kelib joylashuvi. Yue - echji qabilalarining besh hokimlik: SHuanmi, Guyshuan, Xise, Xyumi, Dumi - o'rtasida taqsimlanish. Guyshuan (Kushan) hokimi Kadfizning Kushon podsholigiga asos solishi. Kushon podsholigining Afg'oniston, g'arbiy Pokiston, Hindiston hisobiga kengayishi. Kadfiz islohotlari. Kanishka davrida Kushon — Baqtriya tilining davlat tili sifatida qabul qilinishi. Diniy va boshqa islohotlar. SHaharlar qurilishi. Yirik sun'iy sug'orish inshootlarining barpo qilinishi. Dehqonchilik, hunarmandchilik, shahar me'morchiligi, haykaltaroshlik san'ati. Tovar - pul munosabatlari. Ichki va tashqi savdo. Diniy e'tiqodlar. O'rta Osiyoda buddaviylik dinining tarqalishi. Kushonlar san'ati: devordagi rasmlar, monumental haykaltaroshlik, haykalchalar. Qo'shni mamlakatlar bilan savdo va madaniy aloqalar. Jahon madaniyati taraqqiyotida Kushon davri madaniyatining tutgan o'rni. Kushon podsholigi inqirozi, uning sabablari.

12-mavzu: Buyuk ipak yo'li.

Mavzuning tarixshunosligi. Ipakning dastlabki vatani. Afsonalar va tarixiy haqiqat. Ipak yo'li va uning paydo bo'lishi. Uning tarmoqlari, yo'nalishlari. Ipak yo'lining O'rta Osiyo xalqlari hayotidagi o'rni. Ipak yo'lining SHarq va G'arbni savdo – iqtisodiy, siyosiy, madaniy, diniy jihatdan bog'lashi. Buyuk ipak yo'lining xalqlar o'rtasida tinchlik, do'stlik, hamkorlik o'rnatishdagi roli.

13-mavzu: Kidariylar, Xioniylar va Eftaliylar davlati

Mavzuning tarixshunosligi. Xioniylar, Kidariylar, Afrig'iylar, Eftalitlar. Eftalitlarning O'rta Osiyoga yurishi. O'rta Osiyoda Eftalitlar davlatining tashkil topishi. Eftalitlar davlati hududi, aholisining etnik tarkibi. Ijtimoiy – iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlar. Yerga egalik munosabatlarining shakllanishi. Mazdak qo'zg'oloni. Yangi sun'iy sug'orish inshootlarining barpo qilinishi. "Dehqon"

qarorgohlari, ular atrofida yangi shaharlarning paydo bo'lishi. Dehqonchilik va hunarmandchilik. Ichki va tashqi savdo. Pul munosabatlari. Me'morchilik, tasviriy san'at. Jartepa, Bolaliktepa rasmlari. Diniy e'tiqodlar, an'analar. Navro'z marosimi. Eftalitlar xati.

14-mavzu: O'rta Osiyo xalqlari Turk xoqonligi tarkibida (VI - VIII asr boshlari)

Mavzuning tarixshunosligi. Turk xoqonligining tashkil topishi. Turklarning G'arbga yurishlari. Sosoniylar bilan Turklar ittifoqi. Eftalitlar va turklarning to'qnashuvi. Eftalitlar mag'lubiyati. O'rta Osiyoning Turk xoqonligi tasarrufiga o'tishi. Turk - Eron munosabatlarining keskinlashuvi. Vizantiya bilan diplomatik munosabatlar. Turk xoqonligining hududi, aholisi etnik tarkibi. Mamlakatni boshqarish usuli. Xoqon - davlat boshlig'i. Lavozimlar, mustaqil hokimliklar. Turk xoqonligining g'arbiy va sharqiy qismlarga bo'linib ketishi. Obruy qo'zg'oloni va uning bostirilishi. Budunlar, qora budunlar, beklar, hunarmandlar, savdogarlar. Aholining asosiy mashg'uloti: dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik. Qasr qo'rg'onlarning paydo bo'lishi. Ichki va tashqi savdo. Karvon savdosi. "Buyuk ipak yo'lida" yangi yo'llar va yangi imkoniyatlar. Shaharlar. Qishloqlarda "ko'shk", "qasr", "qo'rg'on". "qo'rg'oncha"larning qad ko'tarishi. Me'morchilik, tasviriy san'at. Yozuv: Xorazm, So'g'd, Tohariston yoeuvlari. Turk, Enasoy-O'rxun yozuvlari. Oltoy yodnomasi va Kultegin bitiklari. Diniy qarashlar; Zardushtiylik, budda, nasoro, moniy va qam (shomonlik). Turk xoqonligining inqirozga yuz tutishi.

15-mavzu: Arablarning O'rta Osiyoga bostirib kirishi.

Arab halifaligining tashkil topishi va Movarounnahr yerlarining arab bosqinchilari tomonidan istilo qilinishi. Mavzuning tarixshunosligi. Arabiston yarim orolida arab halifaligining tashkil topishi. Arablarning qo'shni hududlarga tajovuzkorlik yurishlari. O'rta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishining ikki davri.

16-mavzu: O'rta Osiyoda arablarning mustamlakachilik siyosati va unga qarshi kurash.

Mustamlakachilarning o'zlarini "sahobalar" deb mahalliy aholining urf-odatlarini, e'tiqodlari va madaniyatining yo'qotilishi. Arab yozuvi, arab tilining davlat maqomini olishi, Boshqaruv. Soliqlar: "Jizya", "Xiroj", "Zakot" va boshqalar. Islomning qabul qilinishi. Moddiy boyliklarning halifalik markaziga tashib ketilishi. Aholining iqtisodiy-ijtimoiy ahvolidan yomonlashuvi. So'g'ddagi 720-722 yillardagi Gurak va Divashtichlar boshchiligidagi qo'zg'olonlar. Ko'zg'olonning bostirilishi, 723 - 728 yillardagi Farg'ona, SHosh, Nasaf, Xuttalon, So'g'dda ko'tarilgan ko'zg'olonlar. 736-737 yillarda Tohariston va So'g'dda ko'tarilgan qo'zg'olonlar. Arab mustamlakachilarining mahalliy aholi bilan yaqinlashishi. Halifalikning ijtimoiy va siyosiy hayotidagi keskin o'zgarishlar. Sulolaviy kurashning boshlanishi. Ummaviylarga qarshi Abu Muslim, Buxoroda SHarik ibn SHayxulmahri Muqanna qo'zg'olonlari. Qo'zg'olonlarning yengilishi sabablari va oqibatlari, ahamiyati.

17-mavzu: Tohiriylar va Safforiylar davlati

Tohiriylar davlatining paydo bo'lishi, Davlat boshqaruvi. Soliq siyosati. Xalq ahvolining og'irlashuvi. G'oziiylar harakati. (IX asr 60 yillari) Safforiylar davlatining tashkil topishi. Mavzu tarixshunosligi.

18-mavzu: Somoniylar davlati

Movarounnahrda mustamlakachilik zulmiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan Rofe ibn Lays boshchiligidagi 806 yil qo'zg'oloni. Movarounnahrda Somoniylarning siyosiy hayotga kirib kelishi: Nasr Somoniyning Movarounnahrni barcha viloyatlarini birlashtirish uchun ko'rgan tadbirlari. Ismoilning Buxoroga noib etib tayinlanishi. Uning mustaqil siyosat yuritishi. Ismoil Somoniy - yirik davlat arbobi. Uning davlatni boshqarish va harbiy sohadagi islohotlari. Ismoil Somoniyning ko'chmanchilar ustiga yurishlari. Somoniylar davlatining markaziy va viloyat boshqarmalari. Somoniylar davlatida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot. Qishloq ho'jaligi, er egaligi, hunarmandchilik, konchilikning rivojlanishi. Ichki va tashqi savdo. Pul muomalasi. Ichki ziddiyatlar taxt uchun o'zaro kurashlar. Somoniylar davlatining zaiflashuvi va inqirozi.

19-mavzu: Qoraxoniylar davlati

Mavzuning tarixshunosligi. Ettisuv va Qashg'arda Qoraxoniylar davlatining tashkil topishidagi tarixiy shart-sharoitlar. Qarluqlar, jigilar (chigil), yag'molar, tuxsi va arg'ullarning ijtimoiy va iqtisodiy hayoti. X asrda bu qabilalarning o'troq dehqonchilikka utishi. Yettisuv va Qashg'ar qabilalarining Abdulkarim (955-956 yillarda vafot etgan) ismi bilan mashhur bo'lgan Satuk tomonidan birlashtirilishi. Qoraxoniylarning Movarounnahrda hujumi. Xorazm davlati. Qoraxoniylar va G'aznaviylar o'rtasidagi munosabatlar. Qoraxoniylar hukmronligi davrida Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot. Markazlashtirilgan davlat tizimining yemirilishi. Udel tizimi asosida mamlakatni boshqaruv. Soliqlar, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo. Qoraxoniylar davlatining ikki mustaqil davlatga ajralishi. Qoraxoniylar va Saljuqiylar o'rtasida munosabatlar.

20-mavzu: G'aznaviylar davlati, Saljuqiylar davlati.

G'aznada mustaqil hokimlik o'rnatish uchun harakat. Alptakin-G'azna hukmdori. (962-977) Sobuqtakin hukmronligi (977-997 y). Mahmud G'aznaviy (998-1030 i.) G'aznaviylar davlatining asoschisi. Mahmudning Qoraxoniylar bilan munosabati. Maxmud G'aznaviy va Saljuqiylar g'azavot shiori ostida shimoliy Hindistonga yurishlar. Sulton Ma'sud hukmronligi. G'aznaviylar va Saljuqiylar o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi. Dandanakon (1040 i.) yonidagi jang. Sulton Ma'sud qo'shinining yengilishi G'aznaviylar davlatining inqirozi. Saljuqiylar harakatining vujudga kelishi. Saljuqiylar va G'aznaviylar munosabatlari.

21-mavzu: Xorazmshohlar davlati

"Xorazmshoh" unvonining tiklanishi. Xorazmning mustaqillik uchun kurashi. Alovuddin Otsiz (1127-1156) mohir diplomat, g'ayratli lashkarboshi. Elarslon (1156-1172) va Alovuddin Takash (1172-1200) hukmronligi davrida Xorazmning kengayishi. Mamlakatda iqtisodiy yuksalish, shaharlarning gullab-yashnashi. Urganchning xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan shaharga aylanishi.

Alovuddin Muhammad (1200-1220) - SHarqda eng kuchli harbiy qo'shin egasi. Buxorodagi Malik Sanjar qo'zg'oloni. Xorazmshoh Muhammadning "Iskandariy Soniy" deb atalishi. XIII asr boshlarida Xorazmshohlar davlatining siyosiy ahvoli. Aholining tarkibi. Iqto yerlari. Davlatning ichki ahvoli. Turkon xotinning davlatdagi mavqei. Ichki ziddiyatlarning keskinlashuvi. Muhammad Xorazmshoh va CHingizxonning diplomatik munosabatlari, munosabatlar keskinlashuvi. Jaloliddin Manguberdi, SHahobiddin Xivaqiy, Najmiddin Kubro va boshqa vatanparvarlarning siyosat bobidagi harakatlari.

22-mavzu: IX – XII asrlarda Movarounnahrda fan va madaniyat.

Mavzu tarixshunosligi. IV-VII asrlarda Movarounnahr va Xorazmda ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarning aholi madaniy hayotiga ta'siri. SHarqda uyg'onish davri. Bog'dod va Xorazmda "Baytul - hikma" - donishmandlar uyi. Islom sharqining Fanlar Akademiyasini tashkil topishi. V - VII asrlarda Movarounnahr va Xorazmda me'morchilik San'at rivojining yangi bosqichi. Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, O'zgan, Marv shaharlarida yangi binolarning qad ko'tarishi. Noyob me'morchilik yodgorliklari: Ismoil Somoniy, Arab ota, Mirsaid Bahrom maqbaralari. Nomozgoh Minorai Kalon, Vobkent, Jarqo'rg'on minoralari Suv inshootlari: suv omborlari - bandlar, novlar, ko'priklar, sardobalar, qorizlarning barpo etilishi. To'g'on qurilishi

23-mavzu: O'zbek xalqining shakllanish jarayoni

O'rta Osiyo xalqlarining kelib chiqishi. O'zbek etnosining ko'p etnik qatlamlilik masalasi. Mahalliy tub joyli aholi va uning tili masalasi. Turk va turkiy etnonimlar. Migrasiya jarayonining etnogeneza tutgan o'rni. O'zbek etnogenezining boshlanishi va yakuniy nuqtasi.

24-mavzu: Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga bostirib kirishi

Mavzu tarixshunosligi. Mug'ullarni bir markazlashgan davlatga birlashtirish uchun kurash. Temuchin (CHingizxon) qo'l ostida markazlashgan harbiy - despotik Mo'g'ul davlatining (1206) tashkil topishi. Qoraqum qal'asining mo'g'ul davlati poytaxtiga aylanishi. "Yosoq" - qonunlari majmuining qabul qilinishi. CHingizxon - yirik davlat arbobi va lashkarboshi (1155-1227). CHingizxonning dastlabki istilochilik yurishlari. Naymanlar (1206), Yenisey qal'asi (1207-1208), Yettisuv viloyati, SHarqiy Turkiston yerlarining bosib olinishi. Xitoy (1211-1215) yerlarining mo'g'ullar davlatiga qo'shib olinishi. CHingizxon nigohining g'arbga – Xorazmshohlar saltanatiga qaratilishi. Savdo-elchilik aloqalari. XIII asr boshlarida xorazmshohlar davlatining siyosiy holati. Xorazmshoh va mahalliy hukmdorlar orasidagi ziddiyatlar. Soliqlar va hasharlar.

25-mavzu: Mo'g'ullarga qarshi ozodlik harakatlari.

Mo'g'ullarning Xorazmshohlar davlati hududiga yurishi. Mo'g'ul qushinlarining to'rt qismga bo'linib harakat qilishi. O'tror (1219) mudofaasi. Bosqinchilarning Movarounnahrda ko'rsatgan mislsiz yovuzligi. Buxoro (1220), Samarqand (1220), Ho'jand (1220), Toshkentning ishg'ol qilinishi. Mahalliy aholining bosqinchilarga qarshi olib borgan ozodlik kurashlari. Temur

Malik, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro kabi xalq qahramonlarining jasoratlari. Mo'g'ullar istilosi oqibatlari.

26-mavzu: Amir Temur davlatining tashkil topishi.

Mavzu tarixshunosligi. XIV asrning 50-60 yillarida Movarounnahrda feodal tarqoqlik. Siyosiy porakandalik o'zaro urushlar oqibati. Mo'g'iliston amirlarining Movarounnahrni bosib olish uchun harakatlari. Amir Temur va temuriylar davri tarixining o'mi. XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda siyosiy – iqtisodiy vaziyatning og'irlashuvi. Amir Temurning siyosat maydoniga kirib kelishi. Amir Temur va Amir Husayn o'rtasidagi munosabatlar. "Jangi loy" (1365). Sarbadorlar harakati. Sarbadorlarning mo'g'ul xoni Ilyosxo'jaga bergan zarbasi. Temur va sarbadorlar. Amir Husayn shaxsi. Amir Temur (1370-1405) Movarounnahrning yagona hukmdori. Sohibqironning harbiy yurishlari, uning sabablari. Qunduzcha va Terek daryosi bo'yidagi janglarning jahon harbiy san'ati tarixida yangi sahifa ochishi.

27-mavzu: Amir Temur davlatida ichki va tashqi siyosat.

Amir Temurning To'xtamishxon ustidan g'alabasining SHarqiy Yevropa mamlakatlari uchun ahamiyati. Eron, Hindiston va Kichik Osiyoga qilingan yurishlar. Amir Temurning harbiy sarkardalik mahorati.

Anqara jangi - Amir Temurning buyuk sarkardalik qobiliyati va mahoratining ramzi. Sohibqironning harbiy yurishlardagi zafarlari manbalari. Davlatning markaziy ma'muriyati. Movarounnahrda tashqaridagi yerlarning turt ulusga bo'linishi. Suyurg'ol tizimi. harbiy islohot va qo'shinning tuzilishi. Temur davlatining jahon siyosiy doiralariga ta'siri. Amir Temurning Turkiya sultoni Yildirim Boyazid bilan yozishmalari. Vizantiya imperatori, G'arbiy Yevropa davlatlari qirollari bilan diplomatik munosabatlar: Konstantinopol noibi Ioann VII Paleolog yozishmalari. Frantsiya qiroli Karl VI (1360-1422), Angliya qiroli Genrix IV (1399-1413), Kastiliya va Lion qiroli Genrix III Trastamara (1390-1407) bilan diplomatik aloqalar o'rnatilishi. Anqara (1402) jangidan keyin G'arbiy Yevropa davlatlari bilan aloqalar mazmunining o'zgarishi. Diplomatik aloqalar o'rnatilishida Vatikanning o'rni. Savdo aloqalarining jonlanishi. Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixo. Uning "Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat" nomli esdaligi.

28-mavzu: Temuriylar davrida Movarounnahrda siyosiy hayot.

Mavzu tarixshunosligi. Amir Temur saltanatining parchalanishi. O'rta Osiyo va Xurosonda mustaqil davlatlarning tashkil topishi. Mirzo Ulug'bek (1394-1449) - Movarounnahr hukmdori. XV asrning II yarmida Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-siyosiy ahvol. Xurosonda Sulton Husayn Boyqaro (1469-1506) davlati. Alisher Navoiy (1441-1501) - yirik davlat arbobi, ilm ma'rifat homiysi. Zahiriddin Muhammad Bobur.

29-mavzu: Temuriylar davrida Movarounnahrda ijtimoiy hayot.

Sug'orish va qishloq ho'jaligi sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi. Yaylov chorvachiligi: yilqichilik, qorako'lchilik, tuyachilik, podachilik. Yer egaligi va soliq turlari. Hunarmandchilik: to'qimachilik, kulolchilik, chilangarlik, temirchilik, binokorlik. Samarqand, Buxoro, Toshkent, SHoxruxiya, Termiz,

SHahrisabz, Qarshi - o'rta asr namunali hunarmandchiligi va savdo markazlari. Ichki va tashqi savdo.

30-mavzu: Fan va madaniyat XIV – XV asr.

Amir Temur ilm-fan va madaniyat homiysi. Movarounnahrda ilm-fan va madaniyat. Samarqand, Buxoro. G'ijduvon. SHahrisabz va boshqa shaharlarda me'moriy binolar-madrasalar. Ulug'bek rasadxonasi. Ilm-fan arboblari Qozizoda Rumi, Fiyosiddin Jamshid Koshiy (vafoti 1429), Mirzo Ulug'bek (1394-1449), Alouddin Ali Qushchi (vafoti 1474), Mirim CHalabiy, Davlatshoh Samarqandiy (tax.1435-1495), Xofizu Abru, Abdurazzoq Samarqandiy (1313-1482), Mirxond (1433-1498), Xondamir (1473-1534), Baxouddin Naqshbandiy (1318-1389) va b. Islom allomalari - Xo'ja Ahror Valiy (1404-1490), badiiy adabiyot daholari. "Samarqand akademiyasi". Me'morchilik, naqqoshlik, tasviriy san'at. Kitob san'ati, xattotlik, musavvirlik, lavvohlik (lavha chizish) va sahhoqlik (muqovasozlik). Tasviriy san'at. XV asr tasviriy san'atining ulug' namoyondalari. XIV-XV asrlarda musiqa san'ati. Mohir san'atkorlar – mashshoqlar, bastakorlar, hofizlar. Temuriylar renessansi.

III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar
((Laboratoriya ishlari), (Seminar mashg'ulotlari), (Kurs ishi), (Mustaqil ta'lim) o'quv rejada ko'rsatilgan turi (nomi) bo'yicha yoziladi)

1-2- semestr

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalalari
2. Insoniyatning dastlabki ajdodlari. O'zbekistonning ibtidoiy to'da davri tarixi.
3. O'zbekiston hududida urug'chilik jamoasining shakllanishi va rivojlanishi.
4. O'zbekiston hududi bronza davrida
5. O'rta Osiyoning qadimgi aholisi
6. Avesto-Vatanimiz tarixini o'rganishda muhim manba
7. O'rta Osiyo hududida dastlabki davlat uyushmalarining vujudga kelishi. Qadimgi Baqtriya va So'g'diyona.
8. "Katta Xorazm" va Qadimgi Xorazm davlati
9. Ahmoniylarning O'rta Osiyoga bostirib kirishi va hukmronligi.
10. Aleksandr Makendonskiyning O'rta Osiyoga istilochilik yurishlari.
11. Salavkiylar davlati.
12. Yunon-Baqtriya davlati
13. Qadimgi Xorazm davlati.
14. Qang' davlati.
15. Davan davlatlari.
16. Kushon davlati.
17. Kushonlar davrida din va madaniyat
18. Buyuk ipak yo'li.
19. Eftaliylar, Kidariylar va Xioniylar davlati
20. O'rta Osiyo xalqlari Turk xoqonligi tarkibida (VI - VII asr boshlari)
21. Arablarning O'rta Osiyoga bostirib kirishi

22. O'rta Osiyoda arablarning mustamlakachilik siyosati va unga qarshi kurash.
23. O'rta Osiyoda mustaqil davlatlarning tashkil topishi. Tohiriylar va Safforiylar davlati.
24. Somoniylar davlati.
25. Qoraxoniylar davlati
26. G'aznaviylar davlati, Saljuqiylar davlati.
27. Xorazmshohlar davlati
28. IX – XII asrlarda Movarounnahrda fan va madaniyat.
29. So'fiylik ta'limoti.
30. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni
31. Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga bostirib kirishi
32. Mo'g'ullarga qarshi ozodlik harakatlari.
33. Amir Temur davlatining tashkil topishi.
34. Amir Temur davlatining ichki va tashqi siyosati.
35. Temuriylar davrida Movarounnahrda siyosiy hayot.
37. XIV – XV asrlarda fan va madaniyat taraqqiyoti - Temuriylar renessansi

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

1-semestr bo'yicha

1. Ibtidoiy jamoa tuzumi va uning davrlashtirilishi
2. Insoniyatning tarixiy rivojlanishida qadimgi Tosh davri
3. Insoniyatning tarixiy rivojlanishida Bronza davrining o'rni va roli
4. Ilk temir davrida O'rta Osiy xalqlarining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti.
5. Mil.avv. 1 ming yillikda O'rta Osiyoning qadimgi aholisi
6. "Avesto" vatan tarixini o'rganishda muhim manba
7. O'zbekiston hududida qadimgi sivilizasiya o'choqlarining shakllari
8. O'zbekiston hududida ilk davlatning vujudga kelishi
9. Qadimgi Baqtiriya podsholigi
10. Mil.avv. VI-IV asrlarda O'zbekiston hududida mustaqillik uchun kurash
11. Ahmoniylarning O'rta Osiyoda bosqinchilik yurishlari
12. Ahmoniylar hukmronligiga qarshi xalq qo'zg'olonlari
13. Ahmoniylar hukmronligi davrida O'rta Osiyoda ijtimoiy,siyosiy hayot
14. Aleksandr Makedonskiy O'rta Osiyoga yurushi
15. Aleksandr Makedonskiyga qarshi O'rta Osiyo xalqlarining qahramonona kurashlari
16. Spetamen qo'zg'oloni
17. O'rta Osiyo hududida mustaqil davlatlarning tashkil topishi
18. Grek Baqtriya davlati
19. Qadimgi Xorazm davlati
20. Qang' davlati
21. Dovon davlati
22. Kushon davlati
23. Buyuk ipak yo'li

	24. Mil.avv. VIII-VI madaniy hayot 25. Eftaliylar davlati 26. Erga egalik munosabatlarining shakllanishi 27. O'rta Osiyo Turk xoqonligi tarkibida 28. Arab xalifaligining tashkil topishi va Movaraunnahrning istilo qilinishi 2-semestr bo'yicha 1. Arablarning Movaraunnahrda mustamlakachilik siyosati 2. Arablarning mustamlakachilik siyosatiga qarshi xalq qo'zg'olonlari. 3. Somoniylar davlati. 4. Saljuqiylar davlati 5. Qoraxoniylar davlati. 6. Xorazmshoxlar davlati. 7. Jaloliddin Manguberdi jasoratlari 8. 9-12 asrlarda Movarounnaxrda fan va madaniyat. 9. So'fiylik ta'limoti. 10. 9-12 asrlarda me'morchilik, san'at va musiqa. 11. O'zbeklarning xalq sifatida shakllanishi haqida fandagi mavjud qarashlar. 12. O'zbek xalqining etnik tarixi 13. Markazlashgan mo'g'ul davlatining tashkil topishi. 14. O'rta Osiyo xalqlarining Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashlari. 15. Amir Temur davlatining tashkil topishi. 16. Amir Temur davlatidagi ichki hayot. 17. Amir Temurning harbiy maxorati 18. Amir Temurning G'arbiy Evropa davlatlari bilan diplomatik aloqalari. 19. Amir Temur ilm-fan va madaniyat homiysi 20. Temur saltanatining parchalanishi 21. Temuriylar davrida Movarounnaxr va Xuroson. 22. Temuriy malikalar 23. Mirzo Ulug'bek - buyuk davlat arbobi, fan va maorif homiysi
3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • O'zbekiston tarixining qadimgi davridan to xonliklar davrigacha bo'lgan tarixiy voqea va jarayonlar, tarixiy rivojlanish omillari, haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi; • O'zbekiston tarixining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy taraqqiyoti, tarixiy tushunchalar, tarixiy jarayonlarning xususiyatlarini bilish va ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi; • talaba tarixiy voqea va hodisalarni, rivojlanish jarayonlarini manba va boshqa adabiyotlar yordamida tahlil qilish usullarini qo'llash, tarixiy rivojlanish muammolari bo'yicha yechimlar qabul qilish malakasiga ega bo'lishi kerak.

4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. A.Asqarov va boshqalar O'zbekiston tarixi 1 jild: O'quv qo'llanma. – T.: Ma'naviyat, 2023. 2. Sagdullayev A.S. umumiy tahriri ositida. O'zbekiston tarixi. 1-jild. 3. Darslik. - Toshkent: NIF MSH. 2024. 4. Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. 1-jild. Darslik. - Toshkent: NIF MSH. 2024. 5. Shamsutdinov R.Vatan tarixi. Birinchi kitob –T.: “Sharq”, 2020. Qo'shimcha adabiyotlar 6. Doniyorov A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi - T., 2022. 7. Mulladjanova R. Markaziy Osiyoning qadimgi yozma yodgorliklari - T., 2022. 8. Anorboyev A. Fargonaning qadimgi shaharlari va ularning Markaziy Osiyo tarixida tutgan o'rni - T., 2022. 9. Shukur Qurbon Xaloskorlik yoxud Amir Temur imoni - T., 2021. 10. Xoshimov B. Farg'onashunos arxeologlar - F., 2020. Axborot manbaalari 1. www.tdpu.uz 2. www.pedagog.uz 3. www.ziyonet.uz 4. www.edu.uz 5. https://www.ox.ac.uk/admissions/undergraduate/courses/course-listing/history-art
7.	Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025 yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun ma'sul: Sh.Toshmatov – QDU “Tarixi” kafedrası o'qituvchisi

9.	Taqrizchi: Z.Ilhomov – Nizomiy nomidagi TDPU “O’zbekiston tarixi” kafedrası mudiri, t.f.n. Z. Esonov - Qo’qon DU, “Tarix” kafedrası dotsenti, Tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)
-----------	--